



UDK:811.21

Dilnoza NUSRATILLOYEVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nusratilloevadilnoza2@gmail.com

NavDU professori, f.f.d. A. Xolmurodov taqrizi asosida

THE POETIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF HOMELAND IN THE POETRY OF KHURSHID DAVRON

Annotation

This article focuses on the artistic interpretation of the concept of homeland in the poetry of Khurshid Davron, one of the prominent figures in contemporary uzbek literature. The study examines the poet's literary style, poetic imagery, symbolism, and his historical-philosophical approach. In particular, it highlights the poetic expression of national pride, historical memory, and the harmony of modern thought in Khurshid Davron's poetry.

Key words: Khurshid Davron, poetic mastery, contemporary uzbek poetry, artistic imagery, symbol, poetic thinking, lyrical hero, metaphor, paronomasia.

ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ РОДИНЫ В ПОЭЗИИ ХУРШИДА ДАВРОНА

Аннотация

В данной статье рассматривается художественное отражение понятия родины в поэзии Хуршида Даврона одного из выдающихся представителей современной узбекской литературы. Особое внимание уделяется художественному стилю поэта, поэтическим образам, символике, а также его историко- философскому подходу. В частности, анализируется поэтическое выражение национальной гордости, исторической памяти и синтеза современного мышления в стихах Хуршида Даврона.

Ключевые слова: Хуршид Даврон, поэтическое мастерство, современная узбекская поэзия, художественный образ, символ, поэтическое мышление, лирический герой, метафора, паронимия.

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA VATAN TUSHUNCHASINING POETIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Xurshid Davronning she'riyatida vatan tushunchasining badiiy ifodalanishiga e'tibor qaratiladi. Shoir ijodida badiiy uslub, poetik tasvirlar, ramzlar, tarixiy-falsafiy yondashuv o'rganiladi. Xususan Xurshid Davron she'rlarida milliy g'urur, tarixiy xotira va zamonaviy tafakkur uyg'unligining poetik ifodasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xurshid Davron, poetik mahorat, zamonaviy o'zbek she'riyati, badiiy tasvir, ramz, poetik tafakkur, lirik qahramon, metafora, tajnis.

Kirish. Bugungi o'zbek adabiyotida rivojlanib borayotgan eng yorqin sahifalaridan biri zamonaviy she'riyatdir. Bu jarayonda Xurshid Davronning o'ziga xos poetik dunyoqarashi, badiiy tafakkuri va ijodiy izlanishlari alohida o'rin egallaydi. Shoir ijodida milliy tarix va xalq ruhiyatini badiiy tahlil etgan. Uning shariyati o'zbek mumtoz adabiyot an'alariga tayangan holda, yangi poetik izlanishlar bilan boyitilgan. Haqiqiy shoir uchun vatan, millat, haqiqat, ezgulik odatiy jo'n tushunchalar emas, balki jon va qon, ruh va qalb bilan yaxlitlashgan yagona birlikdir. U ana shu yuksak va muqaddas birlik ishqida iztirob chekadi, uchraydigan qarshiliklarni yengib o'tish uchun yo'l izlaydi. Bu yo'l yesa uni o'zlik atalgan uslubini topish mashaqqatlariga ro'baro' qiladi. Xurshid Davron she'riyati misolida shuni ko'rish mumkin: bu asarlarda ko'pincha tarix- tezis, bugun – antitezis, kelajak – sintez tariqasida taassurot qoldiradi.

Xurshid Davron she'riyatining umrboqiyliigi ham, qanday maqsadlarga xizmat qilishi va kitobxonlar qalbiga ziyo ulashishi ham uning ijtimoiyligida ko'rinadi. Sening ash'oring xalqing qalbini larzaga keltirmas ekan, elini ozod ko'rishni, yoviga nafratini sochishga undamas ekan, u she'r

she'r emas, shoir nazdida bunday ko'rinishdagi bitik badiiylilik kasb etmaydi.

Qafasdagi g'amgin qushni,

Ozod etmoq – she'r bitmoq.

Bolalikda ko'rgan tushni

Eslamoq ham she'r bitmoq.

G'azabingni yashirolmay

Misli sirtlon, misli sher,

Tishlaringni yovga sanchsang, -

Bu eng qutlug', ulug' she'r.

Usmon Azim ijodini tadqiq qilgan Jumagul Suvonova o'z monografiyasida Usmon Azimning bir fikrini keltiradi: "Cho'lpon o'sha zamon sharoiti bilan o'zining buyuk missiyasini – xalqni uyg'otish kabi azobni bo'yniga olgan, xalqning hurligi, uning hayot va mamot masalasi bo'lgan." [1] Xuddi shu fikrni Xurshid Davronga nisbatan ham aytish mumkin. Xurshid Davronning ham o'z xalqi oldidagi shoirlik burchi XX asrning 20-30 yillardagi jadedlar tomonidan o'rta tashlangan maqsad va g'oyalardan unchalik farq qilmaydi. Chunonchi shoir "Shoir – haq so'z jarchisi. El shijoatining avj olishiga g'oyatda mas'ulligini u doimo teran his qilishi, bu jabhada

sabot va e'tiqod bilan qalam yuritishi zarur. Vatanning haqiqiy kurashchan grajdanlarini tarbiyalab, voyaga yetkazmoq uchun faqat imonli so'z – shijoat ehtiromida yaralgan kurashchan she'rlar kerak"[2] ligini yurakdan his qilib yashaydi.

Shoir "Uyg'on, qishning xira tongida" deb nomlangan she'rida muhim bir ijtimoiy muammoni o'rta tashlaydi. Insondagi qurquv tuyg'usi, shaxs ruhiyatini izdan chiqaradigan, shaxsi butun inson bo'lishiga, kattaroq ishlar boshlashiga xalaqit beradigan, qolaversa, uni halokatlariga boshlaydigan salbiy odatlardan biri ekanligini uqtiradi.

Uyg'on, qishning xira tongida

Va entikib quloq tut –

So'nggi bo'ri uvillar tongda.

She'r erkin vaznda yozilgan. Poetik ma'no talabi shu vaznga mos. U kitobxon qalbini o'z ohanglari bilan emas, balki sindirilgan jumlarlar, metoforik birikmalar, so'z va misralarning tajnisi ko'rinishlari bilan hayajonga soladi, tuyg'ulariga estetik zavq bag'ishlaydi. Sen qo'rqma deydi shoir, Chunki uvillayotgan bo'ri so'nggi bo'ridir. Aslida u so'nggi bo'ri emas. Sen mardlik, matonat ko'rsata olsanggina so'nggisi bo'lishi mumkin. Chunki birini mavh etgan qudrat, kuch ikkinchisini ham mavh eta oladi. Lirik qahramon o'ziga o'zi dalda beryapti: "Sen bitta emassan, ortingda butun bir xalq, ezgulik kuchlari turibdi. Agar bo'yningni bo'ri g'ajisa, senga ular yordamga kelishadi". Chunki sen eng so'nggi odam emassan. Botirlarga o'lim yo'q.

Otlan. Bu yo'l so'nggi yo'l emas.

Otlan. Tong ham so'nggi tong emas,

Otlan. Bolalarini o'pish shart emas.

Shart emas xotin bilan xayrlashmoq ham...

Qo'rqdingmi?

Qo'rqdingmi? Qo'rq...

Endi tingla, qo'rqib quloq tut...

Uvillaydi yana bir bo'ri...

Uvillaydi bo'rilar...

El boshiga kelgan baloni daf qilishga chog'langan yurt farzandi uchun yo'l so'nggi yo'l emas. Tinchini buzayotgan yog'iya qarshi jangga kirayotganlar bolalarini o'pib xayrlashishi shart emas. Qaytib kelishiga ishonmagan, shijoatsiz kishigina bunday yo'l tutishi mumkin. Vatan uchun, farzandlarining orzu-armonlarini ro'yobga chiqishi uchun kurashga otlangan, albatta men qaytaman deb olovga o'zini tashlaydi. "Semiotik markaz she'riyatda ko'proq tugallanmada portlovchi oxirgi bayt yoxud misrada bo'ladi"[3], - deb yozadi A.Rasulov. Haqiqatan ham, mazkur she'rida ijtimoiy muammo xotimada yechiladi. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi. Dushmanning ruhi ko'tariladi. Sen bo'rilaridan qo'rqib, hayajonlanib quloq tutib ko'rchi, bo'rining uvillashini, bo'rilarining uvillashini ko'rmas ekansanmi!? Shoirning yakunda chiqargan poetik xulosasi vatanni mard, jasur, botir, haqiqiy adolat uchun jonini tikkanlar himoya qiladi, degan qarashlardan quvvat oladi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, "Chinakam ijodkor bir vaqtning o'zida o'tmish, hozir va kelajakka birday taalluqli bo'la oladi. Shu bois zamonni biz kabi uch o'lchamli emas, balki bir o'lchamli hodisa o'laroq qabul qila oladi. Davr va iste'dod orasidagi unchalar tushunarli bo'lmagan bu ruhiy bog'liqlik adabiyotga turfa badiiy oqimlaru boshqalardan butunlay farqli ifoda uslubiga ega ijodkorlarni taqdim etadi. Xurshid Davronning shiddatli, jo'shqin, ichki kuch va tuyg'uga boy asarlari shunday inja universal muloqot tufayli maydonga chiqqan."[5]

Tarixchi bo'lgan voqealar haqida fikr yuritisa, shoir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalar haqida mushohada yuritadi. Shoir bir qadam oldinda yurgani uchun ham xalqi kelajagini ko'ra biladi. Yurt ertasi, baxti, kelajagi uchun qayg'uradi. Shuning uchun ham bir donishmand: "Agar mamlakat xarob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, haqiqat ahli nazdida bu darvishlarning, ilmlilarning gunohidir", deb yozmagan bo'lardi.

Bolangizni belab qo'ying tush payti,

Tollar belanchakni uchirsin ko'kka.

Ammo siz boshida allalar ayting,

Vatan tuyg'usini soling yurakka...

Tobut uzra yig'lab allalar ayting,

Ayting inqilobiy kurashlar aro.

Toki qalbimizda jo'sh urgan tuyg'u

Farzandlar qalbida bersin aks-sado.

She'r garchand paxta dalasida og'ir mehnatga jalb etilgan ayollarimizning ahvoli ruhiyatidan hikoya qilsa-da, she'rida yolg'on aralashmagan. O'z xalqi, vatani sha'ni uchun da'vatkorona ifoda ijtimoiylik kasb etgan. Belanchakdagi bolani ona-tabi'at o'zi ardoqlaydi, shamol uni tebratadi. Tabiat o'z zarrasini egasiz qoldirmaydi. Biroq siz unga alla orqali Vatan tuyg'usini yuragiga solishingiz kerak. Vatan ozodligi yo'lida jon fido bo'lganlar tobuti uzra alla-marsiya ayting, uning Vatan himoyasida qilgan ishlarini sharaflang, toki sizning qalbingizdagi iftixor tuyg'usi farzandlar qalbini larzaga solsin.

Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam XX asr she'riyati haqida so'zlar ekan, quyidagi qarashlari e'tiborni tortadi: "XX asrda tubdan ijtimoiylashgan o'zbek she'riyati badiiylik darajasi nuqtayi nazaridan ikkiga ajralmoqda: birinchisi – davr muammolari sana'atkorona aks ettirilgan, ko'pning dardi shoir dardiga, demakki ijtimoiy dard shaxs dardiga aylangan, shaxsiylashgan (personifikatsiya bo'lgan) she'riyat. Bunga Cho'lpon, G'.G'ulom, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi shoirlar she'riyati misol bo'ladi". Xuddi shu ko'rinishdagi she'rlardan, ya'ni ijtimoiy dard shaxs dardiga aylangan "Afrosiyob so'zi" she'ri she'riyatning ijroviy lirika turiga mansubdir. Bunda lirik kechinma o'zga bir shaxs tilidan ifodalanadi.

Saratonda kelsang changimni yutasan,

Changlarga aylangan odamlar xokini –

Yuragin, qo'llarin, ko'zlarin yutasan,

Garchi she'r G'arb she'riy shaklida, terset ko'rinishida yozilgan bo'lsada, unda Sharqona falsafa ustunlik qiladi. Ya'ni iloh tomonidan mukarram qilingan inson xoki tuproqqa aylangan. Biz bosgan tuproq changga aylanib, kimningdir ko'zi, yuzini dimog'imizda tuyishimiz mumkin. Mazkur Sharq falsafasini Umar Xayyom ruboiylarida ko'plab uchratish mumkin. Ikkinchi bandda katarsis holati ifodalangan. Kuz shunday faslki, bu mavsumda yog'ayotgan yomg'ir odamlarning armoni, dardi, g'amidan hosil bo'lgan ko'z yoshlar. Ular seni poklaydi. Gunohlaringdan tavba qilishni o'rgatadi. O'sha yomg'ir ostida gunohlardan forig' bo'lish zavqini tuyasan. Komillikka tomon yuz burasan. Qishda kelsang nafrati, qasosi, nomusi sovuqqa aylangan odamlar g'azabidan qiynalasan. Azoblanish orqali butun umringni taftish qilasan, ruhan tozarasan. Bahorda kelsang manguilik, jasorat timsoliga aylangan ulug' bobolarim umri maysaga aylanib seni olqishlaydi. She'r xulosasida men seni ojizliging, buyukliging, yaxshi-yomonligingga qaramasdan

qabul qilaman, chunki men senda mujasamman, degan da'vat bilan xotima topadi. Mazkur she'r muayan jihatları bilan Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" she'riga mazmunan yaqin, ruhan esh.

Kel bo'tam, ag'ana, ko'ksimda silkingan –

Maysazor ustiga, axir, sen mening

Saratonim, kuzim, qishim, bahorimsan.

"Asr va davr ravishi tobora turlanib borar ekan, shoirning atrofni his qilish, uni o'z botinida akslantirish tamoyili ham o'zgarib boradi. Besh yuz yil oldin yor, uning hijroni, ag'yor, gul, bulbul, charxi kajraftor, komil inson kabi mavzular qanchalik yurakdan kuylangan bo'lsa, XX asrga kelib, istiqloq, ozodlik, ma'rifat, tinchlik, adolat, haqiqat yanglig' mavzular shunday pardalarda tarannum etildi. Chunki o'tgan asrning siyosiy tarixiy evrilishlari

oqibatida ijtimoiy mavzular intim xarakter kasb etib ulgurgandi"[4]. Adabiyotshunos yuqoridagi fikrlarini Xurshid Davron ijodi misolida aytganda, nazarimizda, haqiqatga yanada yaqinroq kelgan bo'lardi.

Xurshid Davronning poetik merosi zamonaviy o'zbek she'riyatida Vatan tushunchasining chuqur va rang-barang badiiy talqini bilan ajralib turadi. Shoir o'z ijodida Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni nafaqat lirika vositasida, balki tarixiy obrazlar, timsollar va poetik tafakkur orqali yuksak badiiy saviyada ifodalaydi. Xulosa qilib atyganda, Xurshid davron she'riyati Vatan g'oyasining zamonaviy talqini, tarixiy qatlamlar va intim tuyg'ular bilan uyg'unlashgan badiiy ifodasidir. Bu esa uning adabiy merosini madaniy-ma'naviy nuqtai nazardan o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Сувонова Ж. Усмон Азим шеърятда бадий тафаккур. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б.6.
2. Ҳаққул И. Ҳақиқат – Изҳор байтлари. Тўплам. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б.272.
3. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б.53.
4. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърят. – Тошкент: Адиб, 2012. – Б.157.
5. Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. 2018. – Б. 504.